

O'QUVCHILAR EMOTSIONAL INTELLEKTI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Po'latova Nazira Meliyevna, katta o'qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Annotatsiya: Maqolada O'quvchi yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, O'quvchilar emotsional intellekti shakllanishining psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs, emotsional intellekti, axborot-kommunikatsion texnologiya, pedagogik faoliyat, aqliy qobiliyat.

Mustaqil O'zbekistonimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uni kuchi, idroki, salohiyati, psixologik va ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, sivilizatsiya va rivojlanish bilan uzviy bog'ladi. Bundan esa har bir shaxsning o'z mukammalligi, o'zini bilishi, boshqalarni anglashi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aqlzakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak deb ta'kidladilar

O'quvchining o'quv jarayoniga tayyorligi uning shaxsiy-aqliy kamoloti shaxsiy fazilatlari, intellektual imkoniyatlari va ijtimoiy-psixologik omillarga bog'liqligi qayd etiladi. Bundan ko'rinadiki, o'quvchining aqliy qobiliyatlarini va fahm-farosatliligini xarakterlovchi intellekt darajasi bilan bevosita raqobatlashadigan, insonning ijtimoiy fazilatlarini shakllanishida muhim o'rin tutadigan shaxslararo munosabat, o'zaro hurmat, empatiya, o'zga insonlarning kechinmalarini o'qiy oladigan, ishonch va tuyg'ularini tushuna oladigan sotsial ko'p hollarda ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatida duch kelinadigan nuqson va kamchiliklar aynan sotsial intellektni yuqori darajada shakllanmaganligi oqibatidir.

Shu boisdan ham zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi faoliyatini samaradorligida sotsial intellekti tasiri masalasini tadqiq etish yangi psixologik tadqiqot mavzusiga sabab bo'ladi. SHuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog'lom va ma'nan etuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan ijtimoiy yo'naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi bo'ldi. Birinchidan, sog'lom bola – avvalo sog'lom va ahil oilaning mevasidir. Biz oilani hayot davomiyligini taminlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz.

Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat, o'z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish kabi olijanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi. Shuningdek, bugungi kun jaxon pedagogikasi va ta'lim-tarbiyasi oldida turgan muxim masalalardan yana biri, nafaqat bilimli, balki ijodiy tafakkur soxibi

bo'lgan, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishning usul va vositalarini izlash asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, mustaqil fikrlovchi, aqlan etuk, ruxan tetik, ma'nan barkamol shaxsni shakllantirish g'oyasi insoniyatning paydo bo'lishi davridan boshlangan bo'lib, u shu davrlar oralig'ida bosqichma-bosqich rivojlanib kelmokda. Mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq tushunchalar bugungi kunda ham keng tarzda talqin etilmokda

O'quvchi shaxsning erkinligi va uning intellektual salohiyatli bo'lishi g'oyasi ushbu vazifaning bajarilishidagi asosiylaridan biri hisoblanadi. Zotan, erkin shaxs, erkin xalk, yaratuvchanlik, farovonlik, insonparvarlik, bunyodkorlik ishlari, ilmu-fan, madaniyat va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonida faol harakat qilishga hamda ko'zlangan maqsadlarga erishishga kodirdir. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sifat jixatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxs bo'lib shakllanish davrining asosiy xususiyatlaridan biri – ijtimoiy etuklikning jadal sur'atlar bilan ruyobga chikishidir.

Bunday etuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyat, hayot va faoliyatda bajariladigan turli rollarni egallashni talab qiladi. Ayniqsa, aqliy etuklik (kamolot) muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o'rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir. Bugungi kun yoshlarini nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, muloqot jarayonida yorqin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir.

Xozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning takdiri yoshlarning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'lik. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongiga to'la singdirishni taqozo etadi. Jamiyatni erkinlashtirish jarayonida shaxsning qobiliyat va iqtidorini har jihatdan namoyon etish uchun imkoniyat, shart-sharoitlar yaratibgina qolmay balki, insondagi ruhiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini to'la namoyon bo'lishini talab qiladi. Intellekt masalasi ko'p yillardan buyon o'rganilib kelingan bo'lib, intellect masalalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qator jaxon psixolog olimlarining ilmiy izlanishlarini keltirib o'tamiz:

F.Galton (1822-1911) o'zining «Iste'dodning irsiyatliliigi» asarida jismoniy va aqliy qobiliyatlar o'rtasida o'zaro bog'liklik mavjud deb hisoblab, irsiyatga hal kiluvchi omil sifatida ahamiyat bergan bulsa, J.Lokk esa qobiliyatni ta'limni natijasi sifatida o'rgangan, L.S.Vygotskiy aqliy qobiliyatlar rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy aspektini ilgari surib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir degan fikrni ilgari surgan. B.G.Ananev fikricha, qobiliyatlar-bu nafakat ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirishi, balki individning faol faoliyati va uning psixologik jihati, shaxs bilan munosabati haqida xam fikr, bilimdir 16 deb ta'kidlagan. B.M.Teplov

musikiy iste'dod nazariyasini ilgari surib, u musiqiy faoliyatning muvaffaqiyatini qobiliyatlarning sifat jihatdan o'ziga xos kombinatsiyasiga bog'lik deb tushunadi. U asosiy ko'rsatgich sifatida musiqaga hissiy javob berishni o'rganib chikdi. Aqliy qobiliyat va iste'dod masalasida N.S.Leytes olib borgan ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. U aql sifatlarini o'z ichiga qamrab oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlarni odamning nazariy bilimi va aqliy faoliyatidagi imkoniyatlarini tavsiflab beruvchi asosiy omil deb hisoblaydi.

Bundan tashqari intellekt muammosi A.N.Leontev, P.YA.Galperin, V.A.Kruteskiy, A.M.Matyushkin va boshqalar tomonidan keng ko'lamda o'rganilib, intellekt va uning tarkib topishi, rivojlanishi to'g'risida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'.G'oziev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida intellekt yosh davrlarining o'ziga xos jihatlarini yoritib bergan. B.R.Qodirov o'zbek tilida ishlatiladigan qobiliyat va unga yaqin psixologik xususiyatlarning nomlanishi g'anda unga berilgan ta'riflarni atroflicha yoritib bergan.

A.F.Azimova o'quvchilarning aqliy qobiliyatini aniqlash metodikalarini ishlab chiqqan. B.R.Kodirov o'zbek tilida ishlatiladigan qobiliyat va unga yaqin psixologik xususiyatlarning nomlanishi hamda unga berilgan ta'riflarni atroflicha yoritib bergan. Ammo iqtidorli yoshlarni tanlash va ularning keyingi ta'limini tashkil etish juda kam o'rganilgan. Iste'dodli psixolog B.R. Qodirov (psixologiya fanlari doktori, professor) o'zining ijodiy faoliyatini iqtidorli yoshlarni o'rganishga bag'ishladi.

U differensial psixologiya sohasida yoshlarning individual xususiyatlarini o'igandi. Yoshlarda ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan o'quvchilarning faoliyat yo'nalishlari, layoqat va birlamchi qobiliyatlarining miya mexanizmlari o'rganildi. O'quvchi yoshlarni u yoki bu ijtimoiy faoliyat yo'nalishlarini tanlashlari elektroensefalografik usullar bilan neyrofiziologik jihatlari tadqiq qilindi. Olingan ma'lumotlar miya faoliyatida kasb tanlash, kasbga moyillik va layoqat turlarini ta'minlab turadigan muqobil neyrofiziologik xislatlar borligini isbot etdi. Zehn testlari majmuasi shakllantirildi.

Hozir ta'lim tizimimizda o'quvchilardagi intellekti va ijodkorlik xususiyatini rivojlantirishga alohida talablar qo'yilmoqda. Mamlakatimizda ijod maktablari, prezident maktablarini tashkil etishdan ko'zlanayotgan asosiy maqsadlardan biri ham ijodkorlikni rivojlantirishdir. Shu talab va maqsadga mos ravishda psixologiya va pedagogika fanlarimizda ijodkorlikni rivojlantirish uslubiyati, texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi kerak edi.

Lekin hozircha psixolog va pedagoglarimizning faoliyatlarida bu masalani tezroq va atroflicha tadqiq etishga intilish sezilmayapti. Ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha jahon psixologiya fanida mavjud xulosalarga ko'z yugurtirsak, avvalo, ijodkorlik yana o'sha ongostida shakllanishi va rivojlanishi ma'lum bo'ladi va rivojlantirishga e'tibor berilmayapti. Bizning fikrimizcha, bunday holat bu vazifani bajara oladigan psixologlarning kamligi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Ijodkorlikning doimiy yo'ldoshi bo'lgan bir hodisa bor. Bu ilhom degan hodisadir. Agar o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida ularda

ilhom uygʻotish muammosini hal qila olsak, oldimizga qoʻyilgan maqsadning yarmiga etgan boʻlar edik.

Adabiyotlar roʻyhat

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. - 5-е изд., испр. - М.: Лабиринт, 1999. - 351 с.
2. Ананьев Б. Г. Соотношение способностей и одаренности. В сб.: «Проблемы способностей», под ред.
3. В.Н. Мясищева. - М., Изд-во АПН. РСФСР, 1962.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - М.: Педагогика, 1989. - 64 с
5. Kamolova, SH. Oʻ., & Munarova, R. Oʻ. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. *Issledovatel nauchniy jurnal.–Qozogʻiston*, 5(49), 100-105.
6. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). Oʻquvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 2(6).
7. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy taʼlim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 3(1).
8. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In *Aktualniye zadachi pedagogiki* (pp. 184-186).
9. Qarshiboyeva G. Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
10. Abdurasulov R., Qarshiboyeva G. Психологик маслахат. Архив Научных Публикаций JSPI.
11. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
12. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.
13. Ибайдуллаева, У., & Абдурасулов, Р. (2021). Низолашув даражасини ўсмирларнинг характер хусусиятларига таъсири. *Общество и инновации*, 2(10/S), 499-505.
14. Ибайдуллаева, У. Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. *Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУГ ʻБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б.*
15. Ibaydullayeva, U. (2022). DIQQATNI JAMLASH QOBILİYATINING PASAYISHI VA BUZILGAN KONSENTRATSIYANING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6)
16. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6).

17. Ibaydullayeva, U. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРУДНО ВОСПИТУЕМЫХ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2).

18. Абдурасулов, Р. А., & Ибайдуллаева, У. Р. The influence of motivation on the formation of personality traits. *Journal of Physical Education and Sport (JPES)*.